



TESHIKBARGLI DALACHOY (HYPERICUM PERFARATUM L.)NING BIOLOGIYASI VA URUG'INING UNUVCHANLIGI

Abdisalomova M.A

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi 77 uy

Annotatsiya. *Samarqand viloyati sharoitida Dalachoydoshlar Hypericaceae oilasiga mansub dalachoy (*Hepericum perforatum* L)ning biologiyasi va urug'inining unuvchanligi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetiga qarashli Mega loyiha tajriba maydonchasida hamda Biotexnologiya kafedrasi laboratoriyasida olib borildi va quyidagi natijalarga erishildi.*

Annotation. *The biology and seed germination of the Hypericaceae family (*Hepericum perforatum* L.) in the conditions of the Samarkand region were conducted at the experimental site of the Mega Project of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology and in the laboratory of the Department of Biotechnology, and the following results were achieved.*

Kalit so'zlar. O'simlik, shifobaxsh, ro'vaksimon, qalqonsimon, butun qirrali, cho'ziq tuxumsimon, silindr shaklida, to'pgul, urug', ko'sak.

Keywords: *Plant, medicinal, rhizome, thyroid, entire, oblong-ovate, cylindrical, inflorescence, seed, cob.*

Kirish

Er yuzida dorivor o'simliklarning 10 - 12 ming turi bor. 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. SHulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning har xil qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlashga o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi. Masalan, po'stloq, kurtak



erta bahorda, barg o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, gullari to'la ochilganda, meva va urug'lari pishganda, er osti organlari (ildizi, ildizpoyasi va piyozi) erta bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddasi - alkoloidlar, turli glikozidlar (antroglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va b.), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va boshqa shilliq moddalar. Efir moylari, vitaminlar, smolalar va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin. Ko'p o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fitonsidlarga boy preparatlar tayyorlanadi. Odatda bir guruhgaga xos o'zaro yaqin kimyoviy birikmalar bir oila yoki turkumga mansublari uchraydi, shu bilan birga ba'zi kimyoviy birikmalar bir-biriga yaqin bo'lmagan, turli oilaga mansub o'simliklar tarkibida ham bo'lishi mumkin. Qadim zamondan boshlab inson yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni turli kasalliklarni davolashda foydalani keladi. Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Xalq meditsinasida qo'llanib kelinadigan dorivor o'simliklarni ilmiy tabobatda ishlatib bo'lmaydi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklardan ko'proq anor, achchiqmiya, bodom, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubturum, isiriq, itsigek, omonqora, pista daraxti, sachratqi, dalachoy, shilderbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, qizilcha, qoqio't va boshqalar tarqalgan. Achchiqmiyadan — paxikarnin, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shilderboshdan sferofizin alkoloidlari olinadi. Anor po'stidan gjija haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag'-jag' va lagoxilus dorilari qon ketishni to'xtatuvchi, pista bujg'uni va dalachoydan tayyorlangan dorilar meda-ichak kasalliklarini davolovchi sifatida ishlatiladi.

Bundan shu narsa aniq bo'lmoqdaki, o'simlik xom ashyolaridan tayyorlanadigan dori-darmonlarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Bu hol shifobaxsh o'simliklardan kengroq foydalanishni taqoza etadi. Ana shunday shifobaxsh o'simliklardan biri Dalachoydoshlar Hypericaceae oilasiga mansub teshikbargli dalachoy *Hypericum L.* - Choyo't, dalachoy. Gullari ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan. Tojbarglari 13-15 mm. *H.elongatum* Ledeb. - Cho'ziqbarg choyo't, *N. scabrum* L. - Dag'al choyo't, *N. perforatum* L. - Teshik bargli choyo't, singari uch turi O'zbekistonda Toshkent, Farg'ona, Samarqand,



Surxondaryo viloyatlari adir va tog‘larining o‘rta qismigacha bo‘lgan joylarda tarqalgan bo‘lib, ular uchalasi ham ilmiy va xalq tabobatida qo‘llaniladi.

H. elongatum Ledeb. - Cho‘ziqbarg choyo‘t. Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 40 - 50 sm. Barglari qarama- qarshi o‘rnashgan, 15 - 20 mm. Changchilar tojbarglarga nisbatan qisqa. Iyul - avgust oy larida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasidagi toshloq va mayin tuproqli erlarda o‘sadi. Gullari qalqonsimon yoki dumaloq -tuxumsimon to‘pgulga yig‘ilgan. Tojbarglari 18 - 20 mm, changchilaridan uzunroq. O‘simlikning tarkibida efir moylari 0,25 %, vitamin S, kumarin, oshlovchi modda 9,84 %, flavinoidlar 18%, Antotsian 5,32 %, vitamin P, E lar mavjud. (Aripov 1975, Vandyukova va boshq. 1966.). Ilmiy tabobatda guli oshqozon gjijasining tushirishda, isitma (molyariya) va ich ketishini oldini olishda qo‘llaniladi. Xalq tabobatida oshqozon gjiasi va turli oshqozonda uchraydigan qurtlarni tushirishda qo‘llaniladi.

N. scabrum L. - Dag‘al choyo‘t. Qizilpoyscha. Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 - 40 sm. Poya va shoxlari g‘adir-budur. Barglari uzunchoq - qalami yoki nashtarsimon, 10 -15 mm. Barg qo‘ltig‘idan shoxchalar chiqqan. To‘pguli qalqonsimon-ro‘vak May - iyul oylarida gullab urug‘laydi . Adir va tog‘larning toshli va shag‘alli erlarlda o‘sadi. O‘simlik tarkibida alkaloid, efir moyi, kumarin, kotexin 18%, saponin, vitamin C, P, oshlovchi moddalar va flavinoidlar 5,1% mavjud.

Ilmiy meditsinada dalachoy o‘simligining dorivor preparatlari (damlama, nastoyka, suyuq ekstrakt, imanin preparati) me‘da-ichak (kolit, ich ketishi), og‘iz bo‘shlig‘i (gingivit, stomatit) kasalliklari hamda II va III darajali kuyishlarni davolashda ishlatiladi. Xalq tabobatida er ustki organlari sarg‘ayma xastaligini davolashda (qaynatmasi) qo‘llaniladi. X. X. Xolmatov (1976), Ibn Sino (1953).

N. perforatum L. – Teshik bargli choyo‘t. Dalachoy. Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 35-100 sm. Ildizi yog‘ochlangan. Poyasi va shoxlari silliq. Barglari cho‘ziqtuxumsimon, 10 - 17 mm. To‘pguli qalqonsimon yoki dumaloq - tuxumsimon, ko‘p gulli. Iyul - sentyabr oylarida gullab urug‘laydi. Adir va tog‘larning sernam erlari, ariq bo‘ylarida o‘sadi. Tojbarglari 4 - 10 mm, changchilaridan kaltaroq. O‘simlikning tarkibida efir moylar, oshlovchi moddalar, saponin, kumarin flavinoidlar, vitaminlar alkoloid, glyukozid lar mavjud.

Ilmiy tabobatda yurak stimuli (faoliyati) ni oshirish (yaxshilash) to‘qimalar, regeneratsiyasi, jarohatni tiklanishi va nevrosteniya va nevralgiya,



ginekologik kasalliklarni davolashda hamda damni dipressiya holati va qo‘rquvni oldini olishda qo‘llaniladi.

Xalq tabobatida dipressiya holati, qo‘rquv, tinchsizlanish, asab buzilishi choy o‘ti qaynatmasi hamda yurak, o‘pka jigar, oshqozon-ichak, jigar, bodvosil, venerik va teri kasallikliklarini davolash va ayniqsa jigar rakini davolashda keng qo‘laniladi. Dalachoy er ustki organlarini terib olingan sharbat bilan og‘iz, tomoq kasalliklari davolanadi. Gulidan tayyorlangan qaynatma bo‘g‘ma kasalligi, yurak faoliyatini yaxshilash, oshqozon hamda 12 barmoqli ichak yaralarini davolashda qo‘llaniladi. Urug‘idan tayyorlangan qaynatma ich qotishini oldini oladi.

Tabiiy holda ayrim tog‘ oldi rayonlarda har gektaridan 15 - 20 sentnergacha (er usti organlari) quritilgan hom - ashyo olish mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqotlar Samarcand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Biotexnologiya kafedrasи laboratoriyasida T.A. Rabotnov.(1960) usulidan foydalanib o‘tkazildi.

Natijalar va tahlillar

O‘simlikni ekishni tavsiya etishdan oldin, urug‘ining unib chiqish biologiyasini o‘rganish talab etiladi, chunki E.I. Proskoryakovning (1952) ta’kidlashicha, har bir o‘simlik urug‘ining o‘sib chiqishi uchun optimal harorat muhim ahamiyatga egadir. Ro‘yan, keyuruk, saksovul urug‘ining unib chiqish biologiyasini o‘rganuvchi olimlar ham (V. J. Shirinskaya 1973, B. E. To‘xtaev, 2009) shu xulosalarga kelishgan. Dalachoy o‘simliklari urug‘ining unib chiqish biologiyasini o‘rganish labaratoriya sharoitida I. T. Rabotnov (1960) usuli asosida olib borildi. Dalachoy o‘simligidan 100 dona urug‘ sanab olib petri likobchasida o‘stirildi Tajriba to‘rt qaytariqda olib borildi. natijalar №1 jadvalda keltirilgan.

Jadval №1

Urug‘ining unuvchanligi (% hisobida).

O‘simlik turi	Harorat S ⁰						
	5 ⁰ S	10 ⁰ S	15 ⁰ S	20 ⁰ S	25 ⁰ S	30 ⁰ S	35 ⁰ S
H. perforatum	5 ⁰ S	10 ⁰ S	15 ⁰ S	20 ⁰ S	25 ⁰ S	30 ⁰ S	35 ⁰ S
L.	10+1,6	24+2,8	26+3,1	40+4,1	58+4,4	61+4,7	82 +4,7

Jadvaldagagi ma’lumotdan ma’lum bo‘lishicha o‘simlik urug‘ining unib chiqishi 5⁰S haroratda boshlanib bu ko‘rsatkich 35⁰S tashkil etdi, harorat ortib borgan sari o‘simlikda ham urug‘ning unib chiqishi ortib bordi va o‘simlik uchun



optimal harorat 35°S ekanligini aniqlandi ya'ni bu haroratda dalachoy o'simligida unuvchanlik 82 % ga teng bo'ldi.

Xulosa

Kuzatuvlar natijasida shu narsa aniqlandiki dalachoy *H. perforatum* L. o'simliklarida urug'ining unishi 20°S gacha haroratda sekin kechdi, 25°S dan keyin urug'larning unishi tezlashdi, optimal unib chiqish harorati 35°S da bo'lib, 82% ga teng bo'ldi.

N. Perforatum L. naqadar istiqbolli dorivor o'simlik ekanligi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum. Shu sababli uning tabiiy resurslarini asrab qolish va undan halq salomatligini yaxshilashda unumli foydalanishda bu o'simlikni madaniy o'simlik sifatida ekib o'stirish yo'llarini izlashni maqsad qilib qo'ydik. Hozirgi kunda bu o'simlik urug'ining biologik xususiyatlarini va etishtirishning texnologik elementlarini aniqlash uchun tajriba qo'yishni boshladik. Tajribalar Samarqand qishloq xo'jalik institutiga qarashli tajriba maydonlarida hamda Ekologiya, botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasи laboratoriyasida olib borildi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Зокиров К.З.Флора и растительность бассейна реки Зерафшан Ч. 2. Конспект флоры, Ташкент.1961.446 с.
2. М. Набиев, И. Каримов. Шифобахш ўсимликлардан дамлама қайнатма малҳам. Тошкент 1994 й б 63.72 б. .
3. Проскоряков Е. И. Температурные условия прорастания семян весенних многолетников. Л. 1952 г.
- 4.К.Х.Хожиматов, К. Ю. Юлдошев, У.Ш.Шоғуломов, О.К. Ҳожиматов. Шифобахш гиёхлар дардларга малҳам.Тошкент 1995.б 24.
5. Холматов Ҳ.Х. З. Ҳ. Ҳабибов. Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари. Тошкент 1976. 36
6. Begmatova M. et al. Technology of Cultivation of Medicinal Preparation "Hypericum Perforatum I" //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 510. – C. 01020.



7. Бегматова М. Х., Махмадиярова Ю. Н., Джумаева М. TESHIKBARG Dalachoy (hypericum perforatum) ning xom–ashyo fitomassasi //журнал биологии и экологии. – 2023. – Т. 5. – №. 1.
8. Xolmatov X. X., Axmedov U. A. „Farmakognoziya”, 1-2 qism, T., “Fan” nashriyoti, 2007.